



МУРАДЛИМ

ХЭМ

ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илмий-методикалык журнал № 3/2



Нөкис - 2021

МУГАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 3/2 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕҮОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ, ТАСВИРИЙ САНЪАТ

Ҳожиёв Р. Б., Норбоева Д.О. Ёшлар ижтимоий фаоллигини ривожлантириш концепциялари	4
Ismatov U.Sh. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini turli grafik materiallarda ishlashga o'rgatish (tempera bo'yog'i misolida)	12
Berdiyev O. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'quvchilar duch keladigan ayrim masalalarning amaliy faoliyatdagi yechimlari	15
Baymetov B.B., Xamroqulova M. Talabalarni boshshaklini tasvirlashga o'rgatishda konstruktiv qurilish qonuniyatlaridan foydalanish texnologiyalari	18
Abduxamidov S.M., Shadiyev A.Ya. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning bugungi kundagi o'rni	22
Ismatov U.Sh. Rangtasvir mashg'ulotlarida maishiy janrning ifodalanishi	25
Марасулова И.М., Зулфияев Р.Н. Ўқувчилар таълим-тарбияси жараёнида тасвирий санъат ўқитувчисининг ўрни	28
Абдуллаева Г.С. Формирование ключевых компетенций у студентов с особыми образовательными потребностями через применение ИКТ	31
Мухитдинова М.С. Нуткида оғир нуқсонли болалар билан коррекцион-ривожлантирувчи ишларни олиб боришда мусика машгулотларининг имкониятлари	35
Султанов Х.Э., Марасулова И.М., Юнусова К.Х. Педагогик инновацион кластери: Чирчиқ тажрибасининг илк натижалари	37
Султанов Х.Э., Махмудов М.Ж. Ўқувчиларни тасвирий санъат фанига кизиқтиришдаги ўқитувчининг маъсулияти	42
Қаюмов Х. А., Қо'киёев В. В. Quruvchi muhandislarni tayyorlashda muhandislik grafikasi ta'limini kompyuter texnologiyasi bilan integratsiyalash	46
Махмудова М.Т. Развитие музыкальной тематики и ее актуальность в изобразительном искусстве Узбекистана	48
Марасулова И. М. Эстетическое воспитание молодежи для общества	52
Sobirov S. T. Bolalar uchun nashrlarda illyustratsiyalarning vazifalari	54
Sobirov S. T. Talabalarda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda to'garaklarning o'rni	59
Муратов Х. Х. Ўқув жараёнида мустақил таълимни ташкил этиш ва бошқаришнинг долзарблиги	61
Атаханова С.О. Масофали ўқитиш технологиясининг чизмачиликни ўқитишдаги амалий аҳамияти	65
Атаханова С.О. Чизмачилик фани бўйича ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштиришда муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш омиллари	69
Султанов Х.Э. Таълим муассасалари ҳамкорлигининг кластерли моделини ташкил этиш	73
Қо'киёев В.В. Yordanchi proyeksiyalash usulidan foydalanib yaqqol tasvir qurish	76
Махмудова М.Т. Влияние музыки на изобразительного искусства	81
Махмудова М.Т. Роль и значение музыки в воссоздании изображения	85
Қо'киёев В. В., Mahmudov M. J. Ijodkorlikni rivojlantirish chizama geometriya fani misolida	88
Қо'киёев В. В., Qozoqboyeva D. T. Yordamchi proyeksiyalash usuli orqali yechiladigan masalalar	91

Jumayev I.O. Chizmalarni AutoCAD dasturida chizishda dasturning mavjud murakkabliklarini qo'lda chizishga moslashtirish (o'rgatish) usullari	94
Jumayev I.O. Muhandislik grafikasi fanlarida uch o'lchamli fazoni Auto CAD dasturidan foydalanib qo'llash usullari va ahamiyati	99
Xalimov M., Bekqulov Q. Chizmachilik fanini o'qitishda interaktiv metodlarni qo'llash zaruriyati	102
Bekqulov Q.Sh. O'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolarni tizimga solish va prognoz qilish oldini olish choralari	105
Bekqulov Q.Sh., To'laganova H. Muhandislik grafikasi fanlarida talabalar chizma bajarishda yo'l qo'yadigan tipik xatolar	107
Bekqulov Q.Sh., To'laganova H. Chizmachilik fanidan o'quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirishda tugallanmagan chizmalardan foydalanish	111
Bekqulov Q.Sh., Boizaqova Sh.A. Muhandislik grafikasi fanlarini boshqa fanlar bilan bog'liqligi	113
Boizaqova Sh.A., Bekqulov Q.Sh. Ko'rinishlar mavzusini tushuntrishda detal modelini o'ziga qarab o'rganishning ahamiyati	117
Анкабаев Р. Т. Тасвирий саънатда машгулотларида иллюстрация ўргатишнинг аҳамияти	120
Бахриев И.С. Бўлажак тасвирий саънат ўқитувчиларини касбий тайёрлашда композиция фанининг назарий асослари	122
Атажанова Р. Р. Возможности уроков изобразительного искусства в развитии творческих способностей младших школьников	126
Бахриев И.С. Бўлажак тасвирий саънат ўқитувчиларини касбий тайёрлашда композиция фанини ўқитилишининг амалиётдаги ҳолатини ўрганиш	128
Xalimov M. Chizmachilik fanini o'qitishda interaktiv metodlarni qo'llash zaruriyati	133
Achilov N. N. AutoCAD dasturi yordamida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yaqqol tasvirlarni bajarish asosida	136
Анкабаев Р.Т., Миржалилов М. Б. Тасвирий саънатда машгулотларида миниатюрани ранг тасвирини ўргатишнинг аҳамияти	141
Achilov N. N. Ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda talabalarda ijodiy qobiliyat va dars samaradorligini oshirish yo'llari	145
Saydaliyev S.S., Nig'manov B.V., Achilov N.N. Arxitekturada inson va fazo	149
Ҳоҷиев Р. Б. Норбоева Д.О. Ёшларнинг ижтимоий қатлам сифатида мавжудлигининг онтологик асоси	155

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI TURLI GRAFIK MATERIALLARDA ISHLASHGA O'RGATISH (TEMPERA BO'YOG'I MISOLIDA)

Ismatov U.Sh.

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika Instituti

«Tasviriy san'at» kafedrasida katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: tasviriy san'at, grafik materiallar, qalam, tempera, ijod, uslub, texnika, yorug'-soya.

Ключевые слова: изобразительное искусство, графика, карандаш, темперамент, творчество, стиль, техника, свет и тень.

Key words: fine arts, graphics, pencil, temperament, creativity, style, technique, light and shadow.

Ma'lumki bugungi kunda oliy ta'lim muassalarining maqsadi; talabalarni o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim olishini taminlash, ularni intellektual rivojlantirish, yangi g'oyalarni topish va amaliyotga tatbiq etishini nazarda tutadi. Bu esa mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida, har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish, yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslashuvchan layoqatli kadrlarni tayyorlash masalasining hozirgi zamon ta'lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhimligini ko'rsatib beradi. Har bir sohalarida bo'lgani kabi tasviriy san'at ta'lim yo'nalishida ham, har tomonlama mukammal, ijodkor kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak pedagog-rassomlar tasviriy san'at sir asrorlari, tarixi, tur va janrlari haqida chuqur bilimga ega bo'lishi, hamda har bir grafik materiallar va ularda ishlash texnikalarini yaxshi bilishi lozim.

Har bir pedagog-rassom o'z xohishi, qiziqishi va maqsadiga qarab, turli xil grafik materiallardan foydalanib asar yaratadi.

Grafik materiallarda tasvirlashning turlari ko'p bo'lib, har bir ijodkor rassomning asar yaratish jarayonida o'ziga xos uslubi, tasvirlash texnikasi va foydalaniladigan materiallari mavjud. Kimdir akvarel bilan tasvirlashni yoqtirsa, yana kimdir guashda yoki moybo'yoqda, boshqasi esa qalamda, retushda, temperada, akril bo'yoqda, sanginada va boshqa materiallarda tasvirlashni yoqtiradi.

Misol uchun boshqa bo'yoqlar kabi tempera bo'yoqda ishlashning ham o'ziga xos texnikalari mavjuddir.



Tempera

O'n to'qqizinchi asrning oxirida, allaqachon unutilish darajasiga kelib qolgan tempera yana rassomlar ustaxonalariga qaytganida, Serov, Rerix, Golovin, Borisov-Musatov singari taniqli rassomlar uni bajonidil ishlatishdi. Valentin Serov kartonga temperada ishlashni afzal ko'radi va boshqalari guash bilan birgalikda ishlatadi. Ushbu materialdagi uning asarlari, ko'plari mashhur tarixiy nashrga ishlangan rasmlardan iborat

bo'lgan, kichikligi va rangtasvirda bo'yoq qatlamining zichligi bilan ajralib turadi.

Tempera bo'yoqlari bo'yovchi moddalar (pigmentlar) va ularni bog'lovchi moddalar (emulsiyalar)dan qo'shib tayyorlanadi. Emulsiyaning tarkibiga qarab temperalar oqsilli, tuxum-sarig'ili, tuxum-moyli, mumli va kazeinli xillarga bo'linadi. Yelimli bo'yoqlar va tempera o'zining har xil turlari bilan XV asrgacha rassomlar uchun eng ma'qul va ommabop rangtasvir ashyosi hisoblangan. Tempera bo'yog'ida ishlashning asosiy usullari:

1) bo'yoq aralashmasining oldindan tayyorlab olinishi;

2) kartinadagi ma'lum bir yuzaga tuslarni qo'yish va tusning toza chiqishini ta'minlash maqsadida qo'yilgan bo'yoq chetini oldingi qatlam rangi bilan yedirib qo'shib yuborish. Bunday ishlash kechki flamandlar usuli sanalib, shu jumladan Rubensga ham tegishli;

3) Qadimdan to Jorjone va Titsian davrigacha amalda qo'llab kelingan bo'yoqni yuqa holatda surkab ishlash;

4) Qadimdan qat'iy prinsiplar asosida qo'llanib kelinadigan usul -rangtasvirda soyalarni xarir va iliqlik tuslarda ishlash yoki ularga qarama - qarshi quyuk xamirsimon rang surtmalari holatda sovuq tuslarda ishlash;

5) Bo'yoq ichidagi oldin qo'yilgan bo'yoq rangi yoki grunt rangining ko'rinib turishiga erishish maqsadida ranglarni yuqqa suyuqlik holda (harir parda ortidan ko'ringani kabi) ustma - ust qo'yish usuli.

O'rta asrlarda yashab ijod qilgan nemis rassomlarining temperada ishlangan rangtasvirlarida asosan oq grunt qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Ularning asarlarida



V.E. Borisov-Musatov. Singlim bilan avtoportret. 1898. Xolst, tempera, moybo'yoq. Rus davlat muzeyi, Sankt-Peterburg.

rangtasvirdagi bo'yoq qatlami 2-4 ta qatlamdan iborat bo'lib, unda oldin qo'yilgan ranglar va gruntning keyingi rang ostidan ko'rinib, hayratlanarli darajada ranglarning optik aralashuviga erishilgan. Shunday qilib qalin xamirsimon holdagi quyuq qizil rang ustidan yuqa ko'kish bo'yoq qo'yilib undan to'q jigarrang tus hosil bo'lishiga erishilgan. Neytral – kulrang hosil qilish uchun o'sha qizil rang ustidan harir yashil rang qo'yilishi bilan erishishgan. Shaffof sariq rangni yorqin qizil rang ustidan qo'yib zarg'aldoq rang hosil qilingan. Tillarangi ifodalash uchun issiq bargrangni qalin qo'yilgan qizil (kinovar) ustiga qo'yilgan. Bundan tashqari to'q sariq ustidan qizil (kinovar) qo'yish, tillarang va uning ustidan shaffof jigarrang qo'yish bilan ham hosil qilishgan.

Tempera bo'yoqlari bilan yaratilgan asarlar rang qatlami mustahkamligi bilan ajralib turadi, yorilib ketmaydi, tuslari o'chmaydi, dastlabki holati, tiniqligini ko'p yillar saqlaydi. Bunday sifat darajasini moybo'yoqda ham bo'lmasligini hisobga oladigan bo'lsak temperaning afzalligini tasavvur qilishimiz oson bo'ladi. Tempera texnikasio'zining rang-baranguslublaribilan ham moybo'yoq rangtasviridan qolishmaydi. U bilan tezkor «Alla prima», quyuq surtma, lessirovka, ko'p qavatli ishlov berish yo'llarini ko'plab uzoq muddatli rang tasvirishlarni bajarish mumkin. Bunda moybo'yoqdagi kabi bo'yoq qurishini uzoq kutib o'tirilmaydi, chunki tempera tezroq quriydi. Bir kundan keyin ishni yana davom ettirish imkonini beradi. Bo'yoq qatlami bir tekis qurishi ham uning xususiyatlaridan biridir. Qo'llab olingan mo'yqalam bilan ishlangan sath ustidan bir tekis surkab o'tish ranglarorasini yumshatib uyg'unlik kasb etadi. Temperada juda yorqin, shu bilan birga juda nozik rang xususiyatga ega bo'lgan turli uyg'unlikdagi rang tasvirlarni bajarish mumkin.

Tempera asosan keng miqyosda mahobatli (monumental) rangtasvir asarlar yaratishda qo'llanadi. Ular devorning katta-katta sathlarida tasvirlar yaratishda qulay vositadir. Temperada natyurmortlar ishlansa ham ajoyib chiqadi. Chunki u bilan juda tiniq, chiroyli tasvirlar ishlashga erishish mumkin. Buning uchun natyurmordagi «aksesuarlar» - qo'yilmalar ham yorqin ranglilarini topib, muvofiqlashtirib tashkil qilinishi kerak. Guash va temperada tasvirlar ishlashda maxsus ularga moslangan Ashe, jihazlar kerak bo'ladi. Avvalo bo'yoqning o'zi sifatli bo'lishi talab etiladi.

Temperada ishlash uchun material gruntlanishi lozim. Ular qog'ozda, kartonda, matoda, faner yoki taxtaga surtib tayyorlanadi. Buning uchun asosan elimdan foydalaniladi. Eng yaxshi asos bo'lib maxsus tayyorlangan gruntlangan mato xizmat qiladi. Uni xuddi moy bo'yoq texnikasiga tayyorlanadigan mato singari ishlovdan chiqariladi. Tempera uchun yassi va dumaloq ko'rinishdagi yumshoq, yarim yumshoq, shuningdek dag'al mo'yqalamlar ishlatiladi. Palitra ham yuzasi chuqurroq plastmassadan yoki chinnidan yasalgan bo'lishi kerak. U chetlari bukib tayyorlangan va emal surtilgan metaldan tayyorlangan bo'lishi ham mumkin. Shundan undagi suyuqroq qorishtirilgan bo'yoqlar oqib ketmaydi. Palitraga chiqarilgan bo'yoqlar ishlash tugagach usti nam latta bilan olib quyib saqlanadi. Shunda u keying safar ishlatishga chaqurib qolishdan saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu rangtasvir texnikasi qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha uzoq yo'l bosib, zamonaviy rassomlar uchun ham o'z jozibadorligi, badiiy qiymatini yo'qotmay kelayotganligini aytib o'tish mumkin. Qolaversa bo'lajak pedagog rassomlar uchun ham ushbu bo'yoq texnikasida ishlashni o'rganish o'z ijod yo'lini topishida katta ahamiyatga kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Shahzoda Abdullayeva "XALQ TA'LIMI" ilmiy-metodik jurnali. № 6. T-2018.y, 21-26 b. www.xtjurnali.zn.uz

2. Ismatov Ulfat Shuhratovich and Sabirov Sarvar Tursunmurotovich. Development of Creative Competence in Teaching Future Teachers of Fine Arts to Work in Graphic Materials. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192

3. Хазэл Харрисон, Энциклопедия техника рисунка, Москва АСТ • Астрель 2005й.

4. Ismatov Ulfat Shuhratovich. Technologies of Working on Graphic Materials in Fine Arts Classes. Journal of Asian Multicultural Research for Educational Study ISSN: 2708-9703 Vol. 1 No. 2, 2020 (page 001-004)

5. Shuhratovich, I. U. (2020). Application of innovation in teaching process. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (5), Part II, 4-8.

6. Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of working on graphic materials in fine arts classes (on the example of working still life in the pen. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(4), Part II,41-45.

РЕЗЮМЕ

Bo'lajak tasviriy san'at o'quvchilariga turli grafik materiallarda ishlashni o'rgatishdan maqsad; ulami borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish, badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish, o'z uslubini, ijod yo'lini topishiga xizmat qilishdan, shu bilan birga tasviriy san'at ta'lim yo'nalishida har tomonlama tajribali, yetuk kadrlarni tayyorlashdan iborat.

РЕЗЮМЕ

Цель - научить будущих студентов изобразительных искусств работать с разнообразными графическими материалами; научить их видеть, постигать, понимать и ценить красоту бытия и искусства; развивать эстетический и художественный вкус, расширять рамки художественной мысли; развивать художественное творчество и воображение, помогать им найти свой стиль, способ творчества, а также готовить опытные, зрелые кадры в области художественного образования.

SUMMARY

The purpose is to teach future students of fine arts to work with a variety of graphic materials; to teach them to see, comprehend, understand and appreciate the beauties of being and art; to develop aesthetic and artistic taste, to expand the scope of artistic thought; to develop artistic creativity and imagination, to help them find their own style, way of creativity, as well as to train experienced, mature personnel in the field of fine arts education.

TASVIIRY SAN'AT VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILAR DUCH KELADIGAN AYRIM MASALALARNING AMALIY FAOLIYATDAGI YECHIMLARI

Berdiyev O.

Istixon tumani 1-IDUM

Tayanch so'zlar: tasviriy san'at, inson faoliyati, chizmachilik darslari, aksonometriya.

Ключевые слова: изобразительное искусство, человеческая деятельность, уроки рисования, аксонометрия.

Key words: fine arts, human activity, drawing lessons, axonometry.


Zamonaviy axborot texnologiyalari har bir sohaga kirib kelgan bugungi kunda, amaliy qo'l mehnati orqali yaratilayotgan har qanday narsalarning ish unumi balki sifati ham kundan-kun oshib bormoqda. Inson faoliyatida aqli mashinalarning o'rni qanchalik kengayib bormasin, baribir yangi g'oyalar, takrorlanmas loyiha va innovatsiyalar dastlab amaliy ravishda qo'l mehnati orqali bajarib ko'riladi. Loyihalar aniq standart tizimiga joylangach esa maxsus andazalar orqali ko'p nusxada ishlab chiqarila boshlanadi.

Mamlakatimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida XXI asr zamonaviy ta'lim tizimining turli xil dasturlari joriy etilib sinovlardan o'tkazilmoqda. Ushbu dasturlar asosida yagona milliy dastur qabul qilinishi kelajak avlodni yuqori bilimga, amaliy ko'nikma va mustaqil fikrlashga o'rgatibgina qolmay –balki kelgusida har qanday amaliy faoliyatida duch

kelgan masalalarini kreativ yondashgan holda yechishga o'rgatish asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.


Respublikamiz ta'lim tizimida joriy etilayotgan PISA, TIMMS, STEAM va boshqa zamonaviy ta'lim dasturlari pedagoglarimizni yosh avlodaga turli innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda, kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg'ulotlarni olib borish imkonini bermoqda.

Amaliy fanlar Tasviriy san'at va chizmachilik, Texnologiya, Musiqi hamda Jismoniy tarbiya darslarida olib boriladigan ayrim nazariy mashg'ulotlarga yangi dastur bo'yicha ko'proq amaliy tamondan e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin. O'quvchilar dars jarayonida ayrim mavzularni o'zlashtirish borasida ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday paytda o'qituvchi usha o'quvchi bilan qo'shimcha shug'ullanishi, to'garak mashg'ulotlarida ko'proq amaliy tamonlama mavzuni tushuntirishi, sodda amaliy topshiriqlarni uyga vazifa tarzida berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Odatda amaliy fanlar bo'yicha o'quvchi yoshlar o'zlarining ijodiy ishlarini, yangi g'oyalarni yoki loyihalarni boshqa fanlarga qaraganda ko'proq taqdim etishadi. Buning sababi albatta o'quvchi o'z



I shakl

tasavvuridagi yangilikni yasab, chizib amalda bajarib ko'rsatish qobiliyati yaxshiroq va ertaroq rivojlanishida deb aytishimiz mumkin. Ijodkor o'quvchi maktabni bitirgach o'z yo'nalishi bo'yicha turli innovatsiyon g'oyalarni yoki loyihalarni bajarishda olgan bilimlariga tayanib ish yuritadi. Dizaynerlar, arxitektorlar, konstruktorlar, oddiy tikuvchi, quruvchi yoki bo'yochi bo'ladi – ularning barchasi biror amaliy ish bajarish jarayonida fanlar bo'yicha olgan bilimlarini ishga solishadi. Hozirgi internet tarmolari yuksalib borayotgan zamonda dunyoning ko'plab davlatlari bo'yicha onlayn muloqot va axborotlar almashinuvi yangiliklarning tezda tarqalishi, yaratilgan har qanday loyihalarni insoniyat tomonidan tez o'zlashtirilishini taminlamoqda. Shu tariqa misol sifatida Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'tilayotgan ayrim mavzularni qay tarzda amaliyotga joriy etilayotganini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan Tasviriy san'at fani bo'yicha "Naqshlar chizish" va shunga o'xshash naqqoshlikka oid mavzularni hozirda quruvchilar, bo'yochi yoki dizaynerlar, turli



2 shakl

mamlakatlarning an'anaviy chizgilarigan muayyan bir yangicha tasvirlar hosil qilishmoqda (1 shakl, a,b va c).

Bunday shakllar xona interyerini bezash, devor yuzalarini qoplashda urf bo'lib mahalliy tilda "Jidkiy oboy" atamasi bilan qo'llanilmoqda. Xuddi shunday Chizmachilik fanidan ham "Geometrik yasashlar", "Sirkul yoki lekalo egri chiziqlar" mavzulari bo'yicha ham arxitektor, quruvchilar va ta'mirlovchi-bo'yoqchilar amaliy faoliyatida keng foydalanishmoqda (2 shakl a va b).

Uylarning shiftiga ishlanadigan ovalsimon shakllar, yoysimon eshiklar yoki oddiy emblemalar ham Chizmachilik fanida o'rgatiladigan tushunchalar asosida tasvirlanishini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek Tasviriy san'at fanida o'rgatiladigan "stilizatsiya", "kontrast rang", "perspektiva" va boshqa atamalarni, Chizmachilik fanidagi "ko'rinishlar", "aksonometriya" va boshqa mavzularda uchraydigan tushunchalar bilan integratsiyalashish oqibatida vujudga kelgan 3D tasvirlarni ham misol qilishimiz mumkin (2 shakl c).

Tasviriy san'at va chizmachilik darsliklaridagi ranglar bilan bog'liq mavzular hozirda "Art terapiya", "Muntazam ko'pburchaklar yasash", "Aylanalarni teng bo'laklarga bo'lish" va boshqa mavzulari zamonaviy arxitekturada, shaharsozlikda qo'llanilayotgan elementlarning asosini tashkil etishi, ushbu fanlarning o'quvchi uchun qanchalik ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turibdi. Demak o'quvchilar fan bo'yicha dars jarayonida o'rganganlarini fanga oid turli ijtimoiy tarmoqlardagi amaliy videoroliklar orqali, google, youtube platformalaridagi mahoratli ustalarning ishlari ko'rsatilgan tasvir va videolavhalarni ko'rish orqali ham mustahkamlab borishlari mumkin. Albatta o'qituvchilarimiz bu borada kerakli tavsiyalarni, internet orqali qidirib topilgan lavhalarni o'z faoliyatida misol qilib ko'rsatishni, o'quvchilarning ota-onalariga ham kerakli tavsiyalarni berib borishlari kerak.

Адабиётлар:

1. Султанов Х.Э. Узлуксиз таълим тизимида ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш (тасвирий санъат дарслари мисолида) // Замонавий таълим илмий амалий, оммабоп журнали № 4 2016. -6. -13;
2. Султанов Х.Э. Тасвирий санъат машғулотларида талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш / "Замонавий таълим" илмий-амалий оммабоп журнали, №11, 2016. -59-64 б.;
3. Султанов Х.Э. Innovation technology clusters use of technology in illustration/ International Journal of Psychosocial Rehabilitatio// Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192: -3876.
4. Sultanov Kh.E. (2020). Marasulova I.M., Bakhriev I.S., Ankabaev R.T. The Need for Creation of a Cluster of Pedagogical Innovations in the System of Continuous Education / International Journal of Psychosocial Rehabilitation, ISSN: 1475-7192 // Vol. 24, Issue 05. P. 6586-6591;

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада тасвирий санъат ва чизмачилик дарсларида ўқувчилар дуч келадиган айрим масалаларнинг амалий фаолиятдаги ечимлари ўрганилган.

В этой статье рассматриваются практические решения некоторых проблем, с которыми студенты сталкиваются на уроках изобразительного искусства и рисования.

This article explores practical solutions to some of the problems students face in art and painting lessons.

TALABALARNI BOSHSHAKLINI TASVIRLASHGA O'RGATISHDA KONSTRUKTIV QURILISH QONUNIYATLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Baymetov B.B.

Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at" kafedrasini professori

Xamroqulova M.

Tasviriy san'at kafedrasini magistri

Tayanch so'zlar: bosh shakli, konstruktiv qurilish, proporsiya, metodik bosqich, portret.

Ключевые слова: изобразительное искусство, человеческая деятельность, уроки рисования, аксонометрия.

Key words: fine arts, human activities, drawing lessons, axonometry.

Shakllarni tasvirlashda talaba eng avvalo shaklning konstruktiv asosini yaxshi tushunishi va uni chiziqli konstruktiv to'g'ri aks ettira olishi kerak. Odam portretini tasvirlashda ham uning konstruktiv asosini tahlil qilish va uni chiziqli konstruktiv asosda ifoda eta bilish zarur. Bunday vazifalarni amalga oshirishda mashhur nemis olimi va rassomi Albrecht Dyerer ishlab chiqqan odam boshi sxemasining chiziqli-konstruktiv tasviri bunga misol bo'la oladi.

Biz bosh shaklining konstruktiv asosini tahlil qilar ekanmiz qator qonuniyatlarni ta'kidlab ularni rasm chizishda hisobga olishimiz zarur. Bu qonuniyatlarni A.Dyerer tasvirlagan namuna asosida qarab tahlil qilib chiqaylik.

Bosh shakli go'yo asosiy 4 taparallel-gorizontaal yuzalar bilan kesishganidek: soch bilan qoplana boshlanish joyi, qosh usti yoylaridagi chiziqlar, burun va dahan asoslari. Ana shu yuzalarga perpendikulyar ravishda boshning tuxumsimon shaklida vertikal yuzada kesishadiki, u yuz ustida ko'ngdalang chiziq hosil qiladi. Bu vertikal yuzauini ikki teng qisimga ajratadi, u hosil qilgan profil chiziq esa bosh tashqi ko'rinishini ikki simmetrik yarimga ajratadi.

Gorizontaal yuzalar esa boshni qismlarga ajratadi va soch qoplami, qosh usti yoylari, burun va dahan asoslarini hosil qiladi. Shunday qilib, ushbu sxema bosh shakli proporsional qismlarga ajratish qonuniyatini tasdiqlaydi.

O'zining namunaligi va ishonchligi jihatdan bu sxemadan ko'pchilik rassom-pedagoglar bosh suratini chizishga o'rgatishda hozirgi kun o'quv jarayonida ham foydalanadilar.

A.Dyerer izidan borib rassom-pedagoglar bosh rasmini chizishga o'rgatishda bosh shaklining konstruktiv asosini ifodalashda o'z sxemalarini ishlab chiqqan boshladilar va ular yordamida o'quvchilarga o'quv materiallarini tezroq va yaxshiroq o'zlashtirib olishga ko'maklashdilar. Masalan, rassom va pedagog A.Losenko birqator metodik javdallarni ishlab chiqdiki, ularda boshning kenglikdagi burilishi va holatiga qarab bosh sxemasi perspektiv ko'rinishning o'zgarish qonuniyatlarini ko'rgazmali ravishda ko'rsatib beradi. Asosiy

konstruktiv chiziqlarning (soch qoplamasi, qoshusti, burun va dahan asosi, shuningdek profil chizig'i) yo'nalishlari jadvalda punktir chiziqlar bilan berilgan. Bu bilan Losenko aslida bunday chiziqlar yo'q, ular shartli bo'lib, boshni tasvirlashda rassom bularni xayolan tasavvur yetishni ta'kidlamoqchi bo'ladi.

O'tgan asrning buyuk rassom-pedagogi A.Sapojnikov boshning simli modelini yaratdi (1-rasm). U rasm chizuvchiga shaklning konstruktiv asosi va perspektivasi hosil bo'lishini tushuntirib yetishiga yordam beradi. Bu modelning maqsad – vazifasi haqida taniqli rus pedagogi A.Sapojnikov shunday yozadi: «Badiiy Akademiya imperatorligi kengashga men tuzgan «Boshlang'ich rasm kursi» ning bir nusxasini, unga tegishli metodlar solingan qutini va simdan yasalgan bosh modelini yuborishga jazm ayladim. Ularni o'z marhamatingiz doirasida qabul qilishingizni o'tinib so'rayman. Agar ushbu model Akademiyaning rasm chizish sinflarida foyda keltirsa men juda baxtli bo'lardim. Agar bu modelni xuddi shu burilishda namuna xizmatini o'taydigan gips boshni oldiga qo'yib ishlansa, u o'zini tarkib toptirgan qisimlarining prespektiv o'zgarishini anglab olishga yordam beradi» .

Keyinchalik odam boshi rasmini chizish uslubiyatini ishlab chiqarib harbir qo'llanma muallifi konstruktiv sxemadan foydalanish usullarini o'z bilganlaricha ta'riflay boshlaydilar. Kimdir A.Dyurer sxemasini asos qilib olar va darhol hamma konstruktiv chiziqlarni belgilab olishni tavsiya qilardi. Boshqalar G.Golbeyn sxemasini afzal ko'rardi, uchinchi birlari esa unisidan ham, bunisidan ham foydalanishga intildilar. Tasvirda hamma konstruktiv chiziqlar shartli ravishda shakl yuzasi bo'ylab o'tadi. Konstruktiv chiziqlarning aniq joylashishi (ularni qaysi joylaridan o'tkazish) qo'llanmalarda ko'rsatilmagan. Bu esa ta'lim olayotgan talabaning ishini ancha murakkablashtiradi. Masalan, talaba profil chizig'ini tasvirlamoqchi, lekin bu chiziq qayerdan o'tishi kerakligi unga noma'lum. Ko'pgina qo'llanmalarda profil chizig'i peshona yuzasi va burun uchiga tekkan holda mavhum o'tkaziladi. Rasmda bunday chiziq bosh shaklini qurishda mo'ljal bo'la olmaydi. Bu haqda biz rasm ustida ishlash uslubiy bosqichi haqidagi bobda yana to'xtalamiz. Shuningdek dahan, burun, qosh usti, ko'z kesimi asoslarining chiziqlari joylashganligi ham noma'lum. Talaba ularni ko'r-ko'rona bosh shaklini tasvirlash uchun bu chiziqlarni zarurligini tushunmay turib chizaveradi.

Bu masalaga to'la oydinlik kiritish uchun biz harbir chiziqni bosh suyagi bo'laklari bilan asoslanadigan anatomic qurilish qonuniyatlariga bog'liq ravishda ishda odam bosh shaklining chiziqli-konstruktiv sxemasini ko'rib chiqishni tavsiya etamiz.

Chiziqli-konstruktiv sxema bo'yicha bosh shaklini tahlil qilar ekanmiz, profil chizig'I soch qoplami o'rtasidan, qanshar o'rtasi, burun asosi, lablar tutashmasi (bantiki) va jag' suyagi o'rtasidan o'tishini ko'ramiz. Bosh shakli profil chizig'ining tutashgan nuqtasining yuzasida emas, kalla suyagi bo'laklaridan qidirish kerak. Masalan, burun prizmasida profil chizig'I prizmaning old yuzasida emas, balki orqa yuzasida joylashadi. Burun uchun profil chizig'iga nisbatan boshning kenglikdagi holatiga qarab o'zgartirish mumkin. Dahan asosida profil chizig'I dahan yuzasida emas, (garchi dahandagi chuquri yaxshigina mo'ljal bo'lsa ham), balki jag' suyagida joylashadi.

Rassom profil chizig'ining qayerda joylashishini bilsa u boshning kenglikdagi xolatini ham osongina aniqlab oladi. Buning uchun hayolan to'g'ri chiziq bilan profil chizig'i tutashgan nuqtani qosh usti (qanshar) va dahan asosi profil chizig'i tutashgan nuqta bilan birlashtirish kerak va bu chiziqlar o'rtasida qanday burchak hosil bo'lishini aniqlab olish zarur va bosh ham vertikal, xuddi shu og'ishlikda bo'ladi.

Profil chizig'i shuningdek rassomga bosh shakli tasvirini qurishda ham yordam beradi. Profil chizig'i boshni ikki simmetrik qismga ajratganligi uchun ham rassom juft shakllarning

(jag' suyaklari chizig'i, ko'z kosalari, lab burchaklari, burun teshiklari) joylashuvini ham osonlik bilan kuzata oladi, ular rasmda bir yo'la belgilanadi: jag' suyagining o'ng chizig'ini belgilash bilan darhol uning chap chizig'i ham belgilanadi, chakka suyak chetlari o'ngda va chapda bir yo'la belgilanadi va hokazo.

Horizontall konstruktiv chiziqlar o'zaro parallel bo'lib, boshni proporsional qismlarga ajratadi. Soch qoplami, qosh usti yoylari burun asoslari va dahan chiziqlari boshni teng uch qismga ajratadi.

Boshning proporsional qismlarga ajratish qonuniyatlarini qadimgi rassomlar aniqlab berganlar. Biz bosh shaklining uch qismga ajratish qonunlarini Qadimiy Yunon va Rim rassomlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uyg'onish davri rassomlari matematik o'lchamlar asosida boshning old qismi uchta teng qismlarga ajratish haqida xulosaga kelganlar.

Keyingi asr rassomlari nisbatlar qonunini ishlab chiqar yekanlar, tadqiqotning harxil usullarida ham xuddi shu xulosaga kelganlar. Masalan, A.Losenko o'zining «odamning qisqa proporsiyasi yoki akademik shaklini chizish» asarida boshni uchta teng qismga ajratishni ko'rsatgan. V.Shebuyev o'zining «Antropometriyalar» asarida ham bunga ishora qilgan.

Lekin, keyinchalik Badiiy akademiya maktabining dushmanlari qoida va qonunlarni o'rgatishga qarshi chiqadilar, ular san'atda klassik me'yorlarni tan olmadilar va binobarin bosh shakli tuzilishi sxemalari, shuningdek, uch teng qismga proporsional bo'linishi ham ular harbir inson individual va hamma kishilar uchun ham bosh shaklining tuzilishi borasida aniq va bir xildagi qonun bo'lishi mumkin yemas, degan asosda bularni rad yetadilar.

Odam boshi shakli qurilishiining Albrect Dyurer sxemasi absolyut haqiqat emas, ammo u so'zsiz shaklning konstruktiv asosini ochib berishda qo'l keladi. Klassik qonuniyatlar bilan tanishish rasm chizuvchiga tirik bosh qurilishining nisbatlarini va o'ziga xos xususiyatlarini tuzatish va to'g'ri aniqlashga o'rgatadi. Bu qonuniyatlarni bilish rassomga naturada kuzatiladigan qonuniyatdan chetga chiqish alomatlarini sezishga yordam beradi. Bosh shakli qurilishi (hatto sxematik) qonuniyatlarini bilish rassomga tasvir etilayotgan turli xarakterlarni kuzatish va darhol tasvirga tuzatishlar kiritish mo'ljaldagi rasmga aniqlik va o'zgartirishlar kiritishda keng imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. Naturani kuzatuvchi talaba, boshning qiyshiq chiqib qolmasligi, proporsiyalar o'rtasida qo'pol buzilish bo'lmasligi uchun ishini osonlashtiruvchi yo'llardan foydalanishi kerak. U o'zidan oldingi va uning ishida yordam bergan rassomlar foydalangan me'yor, qoida va qonuniyatlarni bilishi kerak.

Bosh shakli qurilishining sxemasi va uning proporsional qonuniyatlari avval aytib o'tganimizdek, kallasuyagiga asoslangan. Shuning uchun natura bo'yicha konstruktiv chiziqlarning joylashishini belgilash kerak. Shuni nazarda tutish kerakki, ular kalla suyagi asosida yotadilar. Agar biz dahan asosi konstruktiv chizig'ini naturadan qidiradigan bo'lsak, u holda uni dahan yuzasida yemas, balki jag' suyagi bo'rtmasida tasavvur qilish kerak bo'ladi. Burun asosining chizig'i burun uchidan yemas, balki burun teshiklari asosida o'tadi: burun uchi rasmda yo pastda yoki burun asosi chizig'idan yuqorida joylashagan bo'lishi mumkin. Odam boshi qurilishining konstruktiv sxemasini bilish, rasm chizuvchiga tasvirlashga perspektiva qonuniyatlariga rioya qilishga yordam beradi, naturadan ko'r-ko'rona nusha ko'chirishdan qaytaradi. Agar talaba konstruktiv chiziqlarni yaxlit o'zlashtirib olsa, bosh shakli tasvirini to'g'ri qurish yeng murakkab perspektiv vaziyatlarda ham unga unchalik qiyin bo'lmaydi.

Dastlab odam boshi shaklining chiziqli-konstruktiv tasviri quyidagilardan iborat: dastlab tussiz va yorug' soyasiz chiziqlar bilan boshning umumiy shakli tasvirlanadi. Shundan so'ng boshning old qismi ustidan profil chizig'i o'tkaziladiki, bu chiziq uchta teng qismlarga ajraydi va bu chiziqlar ustidan sochlar qoplama qosh usti yoylari, burun va dahan asosi konstruktiv

chiziqlari o'tkaziladi. Zarur mo'ljallarni belgilangandan so'ng bosh detallari: - burun prizmasi, ko'zlarining sharsimon shakllari, lablar va dahanlarning umumlashgan shakllarini belgilab olamiz. Bularning hammasiga zarur tuzatishlar kiritilishi mumkin bo'lgan faqat bitta chiziqlar bilan tasvirlanadi. Shaklning konstruktiv asosini tasvirlashda qo'l keladigan chiziqdar rassomga shakl qurilishi qonuniyatlarini to'g'ri qo'llashga yordam beradi. Misol tariqasida Apollon boshining chiziqli-konstruktiv qurilish tasviri o'quv vazifasi sifatida berilgan. (2-rasm)

Bosh shakli tuzilishining chiziqli-konstruktiv tasvirini bajarish borasida beriladigan maxsus topshiriqlar talabalarga o'quv materialini yaxshi roqo'zlashtirishga yordam beradi, ularni rasm chizish paytida doimiy ravishda fikrlash va mulohaza yuritishga o'rgatadi, yorug'-soya nuqsonlarini ko'r-ko'rona tarzda, passiv ko'chirishdan qaytaradi. Chunki bunday mashqlar yordamida rasm chizuvchi shakl tuzilishi doimiylicha qolishini tushuna boradi.

Bosh shakli tuzilishi qonuniyatlarini to'liq va hartomonlama o'rganish uchun talaba bunday topshiriqlarni nafaqat naturadan, balki xotiradan, tasavvurdan bajarishi zarur. U amaliyotda bunday mashqlar zarurligiga ishonch hosil qilishi, shaxsiy tajribasida realistik rasm san'atini yegallashda ular qay darajada yordam berayotganligini his qilishi kerak. Bunday mashqlar talabanning nafaqat anatomik bilimlari borasidagi qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki his-hayajon bilan yondashishdek ijodiy qobiliyatini shakllantirishga ham qaratilgandir.

Bosh shaklining chiziqli konstruktiv tasvirini bajarishda olib boradigan mashqlarning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat: Talabalarda naturaga bo'lgan qiziqishni yuksak darajada rivojlantirish.

1. Tasvir qurishda uslubiy bosqichlikda ishlashg o'rgatish.
2. Tasvir qurishning to'g'ri va ifodaliligiga rioya qilishga o'rgatish.
3. Realistik rasm chizishda ijodiy jarayonning mohiyatini tushuntirish.
4. Naturani yuksak his-hayajon bilan tasvirlash.
5. Mashqlar bajarishda samaradorlikni oshirish orqali kuzatuvchaklikni o'tkirlashtirish.

Chiziqli – konstruktiv rasm ishonchli va yaxshi qurilgan tarzda chiqishi uchun boshning harxil genglik holatidagi konstruktiv sxemasini tasvirining qator xususiyatlarini ham rassom yaxshi yegallab olishi kerak. Bosh shakli konstruktiv tuzilishining tasvirlash jarayoni ma'lum qonuniyatlarga rioya qilishni talab yetadi.

Xulosa o'rmda shularni ta'kidlash joizki, bosh shakli konstruktiv qurilishi sxemasini yaxshi bilib olgan talabalar keyinchalik tirik boshning akademik rasmi va ijodiy potret chizishda hech qiynalmaydilar. Bosh shakli konstruktiv qurilishi qonuniyatlarini qat'iy ravishda egallab olish uchun yoshlarga faqat chiziqli konstruktiv qurilishi bo'yicha maxsus topshiriqlar bajarish katta ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. Baymetov Botir Boltaboyevich Formation of the skill softportraying the future teacher of fine art sinpencil drawing ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year: 2020, Volume: 10, Issue:5 Firstpage: (1122) Lastpage: (1127).
2. Botir Boltaboyevich Baymetov, Muratov Xusan Kholmuratovich, Self Sketchesasa Toolin the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Vol. 63. No. 2, (2020) @ www. solidstatetechnology. us
3. B. Baymetov. Istoriya razvitiya izobrazitelnogo iskusstva Uzbekistana. Nauka, obrazovaniye i kultura, Moskva, 2016. str. 19–23.
4. Baimetov Botir Boltaboyevich, Sharipjonov Muhiddin. Development of students» descriptive competenciye sinpencil drawing practice. Issuey 08, 2020 issn 2689–100x the usa journals, usa www. Usa journals hub. com/index. php/tajssei... mso, ISSN 2689–100XThe USA Journals, 261–267
5. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competenciyes In

Pencil Drawing Practice. <http://www.usajournalshub.com/index.php/tajssei>. The American Journal of Social Sciency and Education Innovations, 2(08), 261-267.

8. Sultanov Kh.E. Innovation technology clusters use of technology in illustration /International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020: ISSN: 1475-7192. R. 3871-3879;

9. B.B. Baymetov, X.E. Sultanov, X.X. Muratov. Psixologicheskiye osnovy aktivizatsii i tvorcheskix sposobnostey studentov v protsesse prakticheskix zanyatyy. Vestnik nauki, 2019, tom-1, nomer 7. str. 67-71.

10. Boltabayevich Botir Baymetov. Haykaltaroshlik va plastika natomiya. o'quv qo'llanma. Iqtisod-moliya. 2007-yil.

РЕЗЮМЕ

Maqolada odam portretini tasvirlashda uning konstruktiv asosini tahlil qilish va uni chiziqli konstruktiv asosda ifoda eta bilish masalalariga qaratilgan. Unda akademik maktablarda faoliyat olib borgan klassik rassom va nazariyotchilarning talabalarni malakaviy tayyorlashdagi zarur fikrlari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена анализу конструктивной основы портрета человека и умения выразить его на линейной конструктивной основе. Он содержит необходимые идеи художников-классиков и теоретиков, работающих в академических школах по профессиональной подготовке учащихся.

SUMMARY

The article is devoted to the analysis of the constructive basis of the portrait of a person and the ability to express it on a linear constructive basis. It contains the essential ideas of classical artists and theorists working in academic schools for the vocational training of students.

SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI

Abdusamidov S.M.

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakultetini
"Pedagogika va menejment" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Shadiyev A.Ya.

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Sport va chaqiriqgacha
harbiy ta'lim fakultetini o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari*

Tayanch so'zlar: sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy, tarbiyaviy jarayon, jismoniy tarbiya va sport.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, социокультурный, образовательный процесс, физическая культура и спорт.

Key words: healthy lifestyle, socio-cultural, educational process, physical culture and sports.

Sog'lom turmush tarzi tushunchasi keng ko'lamli ijtimoiy-madaniy hamda tarbiyaviy jarayon sifatida, harbir inson yoki oilaning ma'naviy va jismoniy barkamolligi, mehnat jamoasi hamda mahalla muhitida faol ishtirok etish, ko'pchilikka ibrat, namuna bo'lish ma'nosini bildiradi. Unda mustahkam oilada tinch-totuv yashash, mehnat jarayonida yuksak samaralar keltirish, madaniy, ommaviy va sport tadbirlarida doimiy ishtirok etish kabi jihatlar mujassamlashadi.

Bugungi kunda butun jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham aholining sog'lig'i, jismonan salomatligi, sog'lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko'rsatdi.

COVID-19 koronavirus infeksiyasi avvalo yurak-qon tomir va nafas olish yo'llari hamda semizlik (ortiqcha vazn) kasalligiga chalingan fuqarolarimizning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, bugungi pandemiya oramizdan ko'plab fuqarolarimizni bevaqt dunyodan

ko‘z yumishiga sabab bo‘ldi.

Barchamiz bundan jiddiy xulosa qilgan holda zararli odatlardan voz kechib, ommaviy sport bilan doimiy shug‘ullanish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish, xususan tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini me‘yoridan ortiq iste‘mol qilmaslikni, bir so‘z bilan aytganda, sog‘lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Shu sababdan jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanish hamda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali harbir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo‘lishini ta‘minlash, zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarurshart-sharoitlarni yaratish lozim.

Mamlakatimiz mustaqil bo‘g‘ach sog‘lom turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlar yanada ko‘paydi. Ular asosida milliy qadriyatlarini qayta tiklash, ma‘naviy-ma‘rifiy madaniyatimizni davr talablari asosida boyitishga doir qator o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ommabop kitoblar yuzaga kelmoqda.

Ma‘lumki, inson salomatligi ko‘p sohalar bilan bevosita bog‘liq. Bunda tibbiy va gigienik talablar, damolish, ovqatlanish, uyqu, madaniy hordiq chiqarish kabilar ustuvor turadi. Ularning tarkibida esa, amaliy jihatdan real harakat qilish (suzish, yugurish, sakrash, yuk ko‘tarish, nafas olish va shu kabi tabiiy harakatlar) eng muhim omil hisoblanadi). Tabiiy harakatlarni sifatlash, takomillashtirishda jismoniy mashqlar, sport turlari, sayohatlar va xalq milliy o‘yinlari to‘la xizmat qila oladi. Jismoniy madaniyat va sport mazmuni ma‘lum maqsadlarga qaratilishi bilan birgalikda, ular aholining, ayniqsa – o‘quvchi yoshlar, talabalarning jismoniy barkamolligini tarbiyalashga yo‘naltiriladi. Bu esa ma‘naviy va jismoniy jihatdan hartomonlama rivojlangan insonni yetishtiradi. Demak, sog‘lom turmush tarzi mazmunida jismoniy tarbiya, sport, sayohat va xalq milliy o‘yinlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu o‘rinda Respublika Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 5 muhim tashabbusning joriy etilishi shu orqali har-bir insonda o‘zining salomatligi haqida shaxsan g‘amxo‘rlik qilib borish madaniyatini yoshlikdan, oila, maktab, mahallasog‘liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya sportning ko‘magida singdirish kerak ekanligi maqsad qilib olingan. Shunisi muhimki, odamlar so‘zda emas, balki amalda o‘z salomatligining qadriga etib, uni milliy boyluk sifatida avaylab- asrasinlar”, - deb ta‘kidlaganini eslash zarur.

Aholining salomatligini yaxshilash, ularning sog‘lom turmush kechirishlari yo‘lida ulkan tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Sog‘lomavloduchun» ordenin ta‘sis etish (1993-yil 3-mart), Sog‘lom avlod Davlat dasturining qabul qilinishi (1999), «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari majmuining qo‘llanilishi (2000-yil 1-mart), jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qonunlar (1999, 2000) va qator qarorlar (1993, 1996, 1998, 1999, 2000, 2002 va hokazo) qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining madaniy turmush sharoitini tobora yaxshilash yo‘lida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, qishloq aholisining gaz, suv, elektr bilan ta‘minlash, kichik korxonalar qurish, fermerlik xo‘jaligi va shaxsiy xo‘jaliklarni yuritishga keng yo‘l ochib berildi. Hozir 8-12 yoshdagi bolalar kurash, shohmot, sharqona yakka kurashlarda Osiyo va jahon chempioni unvoniga sazovor bo‘lmoqda. Bu esa sog‘lom turmush tarzi namunalaridandir.

Sog‘lom turmush tarzini o‘rganish va uni hayotga joriy etishda ba‘zibir salbiy xususiyatlar ham uchraydi. Bunda, asosan quyidagilarga alohida e‘tibor berish kerak:

1. G'arazgo'ylik, hasad (ko'rolmaslik) vaig'vo, chaqimchiliklar, boshqalarga nisbatan hurmatsizlik.

2. Urushqoqlik, ma'naviyqashshoqv.b.

3. Tuhmat, ko'zbo'yamachilik, aldanchilik.

4. Spirtli ichimliklar, va giyohvandlik moddalarni iste'mol qilish, chekish.

5. Qonunbuzarlik, jinoyatchilikka moyillik.

Rus olimlari M.I.Sechenov, I.P.Pavlov va boshqa juda ko'p shifokorlar, tabobat olamining ilg'or namoyondalari, pedagoglar tomonidan ilmiy asoslangan jismoniy tarbiya tizimi yuzaga keldi. Bunda ayniqsa, P.F. Lesgaftning xizmatlari g'oyat kattadir.

Jismoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish, jismoniy madaniyat va sport tarixi, shuningdek, sport turlari bo'yicha davlat tilida yangi darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda.

Shunga qaramasdan sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uni yoshlar hayotiga joriy etishda takomillashtirishda jismoniy tarbiya va sportning o'rni haqida mukammal ishlangan qo'llanmalar yo'q. Yaratilgan ba'zibir qo'llanmalar ham faqat gigiyenik qoidalar, kundalik rejimlar, kasallikning oldini olish yoki uni davolash kabilarnigina o'z ichiga olgan.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya va uning vositalari (umumrivojlantiruvchi mashqlar, o'yinlar, sport turlari, piyoda yurish, sayohatlar va h.k) o'ziga xos xususiyatlarga ega, ya'ni faol amaliy harakatlar (jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish) natijasida inson tanasidagi barcha bo'g'inlar, mushak-larni harakatga keltiradi. U bilan doimiy shug'ullanish esa jismonan chiniqishni ta'minlaydi. Bunda nafas olish tezlashadi va chuqurlashadi, qon aylanish tizimi gavdani qizdiradi va hujayra, to'qimalarni yaxshi oziqlantiradi. Shuningdek, jismoniy mashqlar ovqatni hazm qilish va asablaritinchitish, mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Shu asosda salomatlikni yaxshilash, jismonan chiniqish va sport mahoratini tarbiyalash amalga oshiriladi. Bu harakatlarni amalga oshirishda shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi, salomatligini hisobga olish zarur. Demak, jismoniy mashqlar salomatlik, bardamlik va chiniqish manbadir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli farmoni.
2. Ayrapetyans L.R., "Voleybol nazariyasi va uslubiyati", Darslik, Toshkent O'zDJTI 2012 yil.
3. Rasulov O.T., "Basketbol", Darslik, Toshkent 1998 yil.
4. Xo'jaev F, Nigmanov B.B., Raximqulov K.D., "Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" (Sport o'yinlar), O'quvqo'llanma. Toshkent 2008 yil.
5. Akromov R ning tahriri ostida. "Futbol". Darslik, Toshkent 2006 y.
6. P.Xo'jayev, B.B. Nigmanov, K.D. Raximqulov. "Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi". (Sport o'yinlari), O'quvqo'llanma. T.: 2008 TDPU.
7. R.I.Azizova. "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi", O'quv qo'llanma. T.: 2010.
8. Ayrapetyans L.R. "Voleybol nazariyasi va uslubiyati", Darslik. Toshkent O'zDJTI 2012 y.
9. Akromov R ning tahriri ostida. "Futbol". Darslik. Toshkent 2006 y.
10. Internet ma'lumotlari.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришда жисмоний тарбия ва спортнинг аҳамияти хақида сўз боради.

РЕЗЮМЕ

В статье обсуждается важность физического воспитания и спорта в формировании здорового образа жизни у студентов.

SUMMARY

The article discusses the importance of physical education and sports in the formation of a healthy lifestyle among students.

RANGTASVIR MASHG‘ULOTLARIDA MAISHIY JANRNING IFODALANISHI

Ismatov U.Sh.

*Toshkent viloyati chirchiq davlat pedagogika instituti
«Tasviriy san‘at» kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: rangtasvir, tasviriy san‘at, maishiy janr, tasavvur, ijod.

Ключевые слова: живопись, изобразительное искусство, бытовой жанр, воображение, творчество.

Key words: painting, fine arts, domestic genre, imagination, creativity.

Rangtasvir san‘ati ijodkorning tevarak-atrofdagi kechayotgan voqealikka xos munosabatida yuzaga keladi va insonlarning ma‘naviy dunyosini boyitishga, ular qalbida yaratish, yashnatish ishtiyoqini oshiradi. Ijodkorning muvaffaqiyati, ijodiy yaratuvchanlik kayfiyati uning ruhiy holatiga, iste‘dodining qadrlanishiga ham bog‘liq. Aslini olganda, rangtasvir o‘zida ichki kayfiyat; ushbu san‘at bilan shug‘ullanish istagi esa, kartina haqidagi tiniq tasavvur va konsepsiyani aks ettiradi. Rangtasvir bu tasviriy va masofaviy shakllanuvchi ijod hisoblanadi. Bu jarayon ko‘p vaqtni talab etib, rassomning birinchi nigoh tashlashidanoq boshlanadi.

Rangtasvir hajmli ob‘ektlar bilan ishlansada, ularni tekislikda joylashtiradi. Kartina tekisligining ikki o‘lchamliligi rangtasvirda masofani tasvirlashning talablariga qarshi turadi. Aslida kartina tekisligida hamma narsa tekis. Rassom chizgan shakllar va bo‘yoqlarni tomoshabin masofaviy o‘zaro aloqadorlikda ko‘radi. Haqiqatda esa kartinaning oldingi plani ham, orqa plani ham yo‘q, tasvirlanayotgan kartinaning real masofasi kartina tekisligida yotadi. Kartinada faqat shakl va rang mavjud. Agar tasvirlar kartinada naturadagidek real tasvirlangan bo‘lsa, demak, eng ishonchli illyuziya yaratilgandir. Shu bilan birga shuni aytib o‘tish lozimki, turli davrlarda yashab ijod etgan rassomlar kartinadagi tekislik va masofani turlicha talqin etishgan. Buyumlar shakli masofani hosil qiluvchi element hisoblanadi. Kartina tekisligiga ko‘chirilgan atrof-muhit va masofa negativ shakl sifatida belgilanadi.

Dastgohli rangtasvir rassomlarning maxsus asbob-dastgox (molbert) yordamida ishlaydigan suratlaridir. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo‘lmagan o‘lchovda mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga mozaykali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli bo‘yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rangtasvirda ko‘pincha moyli va akvarel bo‘yoqlar qo‘llaniladi.

Dastgohli rangtasvir san‘ati boy tarixga ega bo‘lib, u insoniyatning estetik dunyoqarashi shakllanishi va rivojlanishida san‘atning boshqa turlari qatorida juda muhim o‘rin tutadi. Dastgohli rangtasvirda yaratilgan asarlar qaysi janrda ifodalanmasin, tomoshabinni o‘ziga jalb qilgan holda, inson ruhiyatiga kirib boradi. U xox portret, natyurmort yoki manzara va maishiy janrda bo‘lmasin, kishilarga zavq hissini bag‘ishlaydi. Ayniqsa, maishiy janrda yaratilgan kartinalar o‘zida davr ruhi, kundalik turmush tarzi va davrning muhim voqealarini aks ettirganligi bilan tomoshabinda o‘zgacha taassurot uyg‘otadi.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda dastgohli rangtasvir san‘ati juda qisqa vaqtda rivojlanib katta yutuqlarga erishdi. O‘zbekiston rangtasvir san‘ati zafarli yo‘lni bosib o‘tdi. Respublikamiz rassomlari ko‘pgina ko‘rgazmalarda faol ishtirok etib, san‘atimiz ta‘sirchanligini ortib borayotganini namoyish etdilar. Qolaversa, rassomlarimiz bugungi kungacha ko‘pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar.

Rassomlik san‘atining o‘ziga xos xususiyatlariga ega janrlaridan biri maishiy janr tasviriy

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан
филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 3-2**
Нөкис — 2021

Басып шығыуға жууапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Н. Абдукаримов

Оригинал-макеттен басыуға рухсат етилди 12.03.2021. Форматы 60x84¹/₁₆

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шэрти б.т. Нашр. т. Нусқасы 2000. Буйыртпа №

«NISO POLIGRAF» ШК босмахонасида босилди.

Тошкент ш., Ҳ. Бойқаро, 51

